ZAMONAVIY JAMIYATDA KADRLAR SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING MA’NAVIY-AXLOQIY OMILLARI

A.B.Ummatqulova
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda zamonaviy jamiyatda kadrlar salohiyatini yuksaltirishda ma’naviy-axloqiy omillarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda kadrlarning kasbiy kompetensiyasi bilan bir qatorda ularning ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari hamda ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, halollik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi ma’naviy qadriyatlarning shaxs va jamiyat rivojidagi ahamiyati yoritilgan. Milliy g‘urur hamda umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi kadrlar salohiyatini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda yuqori malakali, jismonan va ma’naviy yetuk kadrlarni shakllantirish dolzarb masala ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’rifat, axloq, shaxsning ichki dunyosi, ma’naviy qarashlar, qadriyatlar, an’ana, kadr, salohiyat.

Hozirgi globallashuv jarayonida jamiyatlarning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan inson omili bilan belgilanmoqda. Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlarning barqarorligi hamda raqobatbardoshligi malakali kadrlar salohiyatiga bog‘liqdir. Shu sababli bugungi kunda “inson kapitali” tushunchasi davlat siyosati va ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Biroq kadrlar salohiyatini faqat kasbiy bilimlar va texnik ko‘nikmalar bilan o‘lchash yetarli emas. Zamonaviy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ichki dunyosi, ma’naviy qarashlari va axloqiy qadriyatlari uning professional faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”[1]. Ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lmagan mutaxassisning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi cheklangan bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, kadrlar salohiyatini oshirish jarayonida ma’naviy-axloqiy omillarni chuqur o‘rganish va ularni ta’lim hamda boshqaruv tizimiga integratsiya qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Kadrlar salohiyati – bu shaxsning bilim darajasi, kasbiy ko‘nikmalari, intellektual imkoniyatlari va amaliy tajribasining jamlanmasidir. U jamiyatda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda kadrlar salohiyati faqat mehnat resursi emas, balki rivojlanishning strategik resursi sifatida baholanadi. Bu yondashuvda

inson nafaqat ishlab chiqaruvchi kuch, balki innovatsion fikrlovchi subyekt sifatida ham talqin qilinadi. Kadrlar salohiyati quyidagi komponentlardan iborat:

- kasbiy bilimlar;
- amaliy ko‘nikmalar;
- intellektual rivojlanish;
- psixologik barqarorlik;
- ijtimoiy moslashuvchanlik;
- ma’naviy-axloqiy fazilatlar.

Kasbiy bilimlar – kadrlarning o‘z kasbi doirasidagi egallagan bilimlarini ifodalaydi. Amaliy ko‘nikmalar – kadrlarning o‘z kasbi doirasidagi egallagan bilim hamda ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olishlarini, kasbiy bilimlarning amaliy hayot bilan uyg‘unlashuvini ifodalaydi. Kadrlarning amaliy ko‘nikmalari qay darajada yuqori bo‘lsa ularning ish samaradorligi ham shu darajada yuqori bo‘ladi. Intellektual rivojlanish – kadrlarning o‘z ustida tinimsiz ishlashi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, muntazam o‘z malakasini oshirib borishi, zamonaviy bilimlarni egallashini ifodalab, kadrlarning salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Psixologik barqarorlik – kadrlarning ichki hissiyotlarini boshqara olishi, o‘zini muntazam nazoratda tuta bilishidir. Ijtimoiy moslashuvchanlik esa kadrlarning har qanday ijtimoiy vaziyatlarga, konfliktlarga bardosh bera olishi, vaziyatni ijobiy tomonga yumshoqlik bilan hal qila olish qobiliyatidir. Ma’naviy-axloqiy fazilatlar – o‘z navbatida kadrlar uchun eng muhim komponent sanalib, kadrlarning o‘zini tuta bilishi, so‘zlashuv madaniyatida namoyon bo‘ladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganidek:”Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”[2]. Insoniyatning ko‘p ming yillik tajribasishuni ko‘rsatadiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, birinchi navbatda, uni qurolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lgan milliy qadriyatlari, an’analari, tarixi hamda ma’naviyatidan judo qilishga urinadi. Mamlakatimiz istiqlolining ilk kunlaridanoq, buyuk ma’naviyatimiz hamda ulug‘ qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini asrab-avaylash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. Bizga ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq. Yosh avlodga tarbiya jarayonida milliy ruh singdirilsa, har bir avlod mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi krng vatanparvar barkamol shaxs sifatida voyaga yetadi. Ushbu jarayonda milliy qadriyatlarimiz, an’analarimiz muhim o‘rin egallaydi.

Qadriyatlar — inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi:

— tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar);
— iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari);
— ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (yerkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, hamkorlik);
— ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar);
—falsafiy qadriyatlar (g‘oyalar, mafkuralar, konsepsiyalar);
— badiiy qadriyatlar (san’at, adabiyot, madaniyat);
— diniy qadriyatlar (iymon, e’tiqod, vijdon, savob).

Shu bilan birga, fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an’ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat, xalq va elatlarning o‘z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy hamda madaniy (ma’naviy) boyliklari yig‘indisidan iboratdir.

Axloqiy madaniyat – jamiyatdagi axloqning yuksaklik darajasini, fuqarolarning axloqiy saviyasini aks ettiruvchi tushuncha bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi asosiy axloq me’yorlarini egallashi va o‘zgalar bilan shu asosda munosabatda bo‘lishi, o‘zini axloqiy tomondan muntazam takomillashtirib borishi kabi jihatlarni qamrab oladi. Axloqiy aqidalarning eng muhim omillaridan

biri – muomala odobi bo‘lib, insonlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o‘zaro tajriba almashmasdan, o‘zaro ta’sir ko‘rsatmasdan, o‘zaro muloqot qilmasdan yashashi mumkin emas. Chunonchi, muloqot va muomala inson uchun asosiy ehtiyoj hamda zarurat bo‘lib, muomala odobi o‘zga kishilar qadr-qimmatini, hurmatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy-me’yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Ma’noli va ravon so‘zlash, suhbatdoshni tinglay bilish, nutq madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etib, muomala odobida muloqotning asosiy vositasi bo‘lmish til katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimizda “ Siz ham, “sen” ham bir og‘izdan chiqadi” degan hikmatli so‘z bor. Shu sababli muloqot paytida suhbatdoshga hurmat ifodasi sifatida har bir so‘zni suhbatdoshining ko‘ngliga, qiziqishi va kayfiyatiga qarab, yoshini kasbu kori, ijtimoiy hamda oilaviy ahvolini e’tiborga olib, hurmatini joyiga qo‘yib gapirish, muloqot jarayonida o‘rinsiz harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Axloq – kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me’yor va qoidalardan iborat bo‘lib, ular kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me’yor va tartib-qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo‘lgan axloqqa ega bo‘lishlikni talab etadi. Axloq insonning dunyoqarashi, fikrlashi hamda xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu bois dunyoqarash o‘zgarmaguncha inson ham uning axloqi ham o‘zgarmaydi. O‘zbek pedagog olimi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta’rif keltiradi: “Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur”[3]. Axloq — inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me’yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini o‘rgatuvchi tarixiy hodisa. Axloqiy qonun-qoidalar barcha zamonlar uchun bir xilda, o‘zgarmas bo‘lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to‘g‘ri bo‘lsa, boshqa davrga kelib noto‘g‘ri bo‘lib qolishi ham mumkin. Ma’naviy-axloqiy tarbiya yuksak ma’naviyatning asosi, yuksak ma’naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, hozirgi Yangi O‘zbekistonda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish, yoshlarda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani ham bejiz emas albatta. Darhaqiqat Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, – “…jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz”[4]. Insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganligi uning tevarak-atrofdagi shaxslarga bo‘lgan munosabatlaridan namoyon bo‘ladi. U insonning hislarida, kechinmalarida ifodalanib, xulq-atvorida, xatti-harakatida yuzaga chiqadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxsni axloqiy jihatdan yetuk qilib shakllantirishdir. Shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo‘lgan axloqiy ong, hissiyot hamda xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O‘zbekiston gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga nisbatan hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, jamiyatdagi ongli intizom va boshqa tuyg‘ularni kamoltoptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridandir. Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining o‘rni beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib borish kerak bo‘ladi. Bu esa insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, mushohada qilish aqlni peshlaydi, aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma’naviy manbaga aylanib kishining dunyoqarashi kengayadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya bola shaxsiyatiga boshlang‘ich sinfligidanoq singdirilishi maqsadga muvofiq. Shu boisdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari zimmasiga qator vazifalar yuklanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, ya’ni ularni o‘qishga, ta’lim olishga qiziqtirishi va ishtiyoq uyg‘otishi bilan bir qatorda ularning idrok etish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytirish kabi sifatlarini rivojlantirishga o‘z kasbiy faoliyatini to‘liq safarbar qilishi kerak. Bunda ular o‘z o‘quvchilarining ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi nuqtayi nazaridan), ma’naviy ehtiyoji, yashash muhiti (oiladagi turmush tarzi va ular yashaydigan jamoa — mahalladagi muhit umumsog‘ligi) kabi omillarni e’tiborga olishi lozim bo‘lib, pedagoglar psixologik bilimlarga ham ega bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbiy sohalarida quyidagi xislatlarga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi:

- o‘z o‘quvchilarini sevish va ular bilan ishlashga qiziqish;
- pedagogik faoliyatni sevish va bu faoliyatni o‘zining hayotiy ehtiyojiga aylantirish;
- ruhiy va pedagogik jihatdan ham ziyrak, kuzatuvchan, sinchkov bo‘lish;
- pedagogik taktik va tasavvurga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- adolatlilik, dilkashlik, talabchanlik va qat’iyatlilikni uyg‘un holda olib bora olishlik;
- maqsadga intilishda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishlik;
- vazminlik, dilkashlik, o‘zini idora qilishlik, shuningdek, kasbiy faoliyatga layoqatning yuksakligi va boshqalar

Shuning bilan birga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yoshlardagi burchga mas’uliyat (javobgarlik hissi)ni tarbiyalash hamda vatanparvarlik sir-asrorlarini mukammal egallashi kerak bo‘ladi. Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasi shakllanishida, asosan, quyidagilarga e’tibor berish lozim:

— oila, mahalla va maktabni o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishiga erishish;

— bola xatti-harakatini tahlil qila bilish va rejalashtirilgan ta’lim-tarbiya;

— bolaning erkin hamda mustaqil, keng ko‘lamli fikrlashini shakllantirishning shakl, usul va vositalarining optimal variantlarini tanlay olish. Biz bo‘lajak pedagoglar har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani zimmamizga olar ekanmiz, bu ishga qat’iy qaror bilan yondashishimiz lozim bo‘ladi. Har bir bolani o‘z farzandimizdek ko‘rishimiz, unga mehr bilan munosabatda bo‘lishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M. 2026-yilning 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi nutqidan.

2. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent.Ma’naviyat nashriyoti. 2008.

3. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. Toshkent.

4. Mirziyoev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. «Tasvir» nashriyot uyi.Toshkent .2021.

5. Asadov B. Yoshlar va qadriyatlar. – Toshkent: Istiqlol, 2000.